

## TOHIR MALIK ASARLARIDA IJTIMOYIY CHEGARALANGAN LEKSIKA (JINOYAT LEKSIKASI MISOLIDA)

**To‘rayeva Zarrina Abdimurot qizi**

Termiz Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

[xurramovazarrina7@gmail.com](mailto:xurramovazarrina7@gmail.com)

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada qo‘llanish doirasi chegaralangan leksikaning ekspressiv ma‘no xususiyatlari shuningdek, salbiy ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan Tohir Malik qalamiga mansub Shaytanat romanida keltirigan jinoyat leksikasi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ijtimoiy chegaralangan leksika, sotsiolekt, argo, jargon, laqab.*

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarda ijtimoiy dialektlar terminini ko‘plab uchratamiz. Odatda ijtimoiy dialektlar tilning shunday bir ko‘rinishiki, ular adabiy til va uning normalariga mos kelmaydi. Biroq ko‘pgina manbalarda ijtimoiy dialektlarni adabiy tilning u yoki bu jihatlarini ochib beruvchi, to‘ldiruvchi vositalar sifatida qarashlar ham mavjud. Ma‘lumki, ijtimoiy dialektlar umumxalq tilining ma‘lum bir qatlamini tashkil etadi.

Sotsiolingvistikada ijtimoiy chegaralangan leksikaga nisbatan sotsiolekt termini qo‘llaniladi. Sotsiolekt- umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Sotsiolekt verbal xulq va ijtimoiy ahvolning muvofiqligini ifodalaydi. Sotsiolektlar kommunikatsiyaning butun bir tizimini ifodalamaydi. Uning asosini milliy tildan deyarli farq qilmaydigan lug‘at va grammatika tashkil qiladi. Sotsiolekt o‘z ichida ma‘lum bir tabaqalar nutqiga xoslangan “argo”, “jargon”, “sleng” kabi turlarga ajraladi. Jargon- biron ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan

ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralar. Masalan, oq (aroq), qizil (vino)-ichuvchilar nutqida. Tilshunoslikka oid aksariyat adabiyotlarda "jargon" bilan "argo" termini farqlanmasdan, aralashtirib yuborilgan. Argo- jargondan farqli ravishda, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan u yoki bu darajadagi yashirin, yasama til. Masalan, o'g'rilar argosida shmon qilmoq, gopstop qilmoq iborolari "o'g'irlamoq" ma'nosida ishlatiladi. Argolar jargoga nisbatan o'zining yashirinlik xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ular ko'proq jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, o'g'rilar, giyohvandlar va h.k lar nutqida uchraydi.<sup>1</sup>

Iste'dodli yozuvchi Tohir Malikning "Shaytanat" asarida jinoyat olamida taqdiri bir-biriga o'xshamagan, qiyofasi-yu fe'l atvori, dunyoqarashlari bir-biridan tubdan farq qiluvchi obrazlar tasvirlangan. Asarda ismlarga nisbatan ularga atab qo'yilgan laqablar nom o'rnida, ya'ni atoqli ot sifatida ko'p qo'llangan. Avvalo, bu so'zning ma'nosiga izoh beradigan bo'lsak, laqab arabcha so'z bo'lib, biror xususiyatiga ko'ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab qo'yilgan nomni, taxalluslar, familiyalarni bildiradi<sup>2</sup>. Masalan, Kesakpolvon, Chuvrindi, O'qilon, Suvilon, Bo'tqa, Xumkalla, G'ilay, Bo'ri, Qassob, Hovuz polvon va hokazo. Ma'lumki, laqablar insonning turli-tuman belgisi, xususiyatlariga qarab qo'yiladi. Shunga ko'ra ular kishilarning qaysi urug' yoki qabilaga mansubligini, ulardagi jismoniy kamchiliklarni, xarakter, fe'l-atvor, gapirish uslubi, kiyinishdagi biror kamchilik yoki o'zgachalikni, kasbini, millatini, kishilardagi shu kabi yaxshi hamda yomon xislatlarni, belgi-xususiyatlarni ko'rsatadi.

Bilamizki, laqab kishilarga tashqi ko'rinishiga nisbatan (Xumkalla, G'ilay), yoki xarakter xususiyatiga nisbatan ko'chma ma'noda (O'qilon, Suvilon), qilgan biror ishga bog'liqlik asosida (Kesakpolvon, Qassob) shaxsga nisbatan nomga aylangan. Demak, laqab - shaxsning tashqi ko'rinishi, mashg'uloti yoki biror xususiyatiga qarab beriladigan ikkinchi nom. Odatda, laqab ishlatilish o'rni va maqsadiga qarab ijobiy

<sup>1</sup> Sh. Usmanova., N. Bekmuxamedova., G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma Toshkent-2014 B;16-17

<sup>2</sup> . Узбек тилининг изоҳли луғати. -Москва: Русский язык. 1981

yoki salbiy ma'noga ega bo'ladi. Misol uchun "Shaytanat" asarining 1-kitobida Haydar Asrorovga nisbatan Kesakpolvon laqabining qo'yilishi shunday izohlangan: "Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg'och mo'ylabi o'ziga yarashgan odam ko'rindi. Bu odamni yaxshilab tanib oling: Haydar Asrorov, laqabi Kesakpolvon. Asadbekning o'ng qo'l a'yon. Ozg'in, chayir bo'lgani uchun Kesakpolvon, deb atashgandir, desangiz yanglishasiz. Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo'lganidek, bu olamning ham o'ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Shulardan biri - bu olamga qadam qo'ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Laqab osmondan olinmaydi, balki xatti-harakati, fe'liga qarab topiladi. Jussasiga qarab tanlanganida Haydar Kesak emas, Toshpolvon yoki Temirpolvon bo'lishi kerak". (1-kitob, 71-b) ...Haydar ikkita dehqonning iziga tushadi. Ularning belbog'ida pul bor deb o'ylaydi. Cho'ntak belbog' kesishda Haydardan o'tadigani yo'q edi... Xullas, belbog' kesildi...Panaroqqa o'tib qarasa, belbog'da sariq chaqa ham yo'q- besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo'yilgan. Aslida dehqon shaharda "tahoratga kesak topiladimi, yo'qmi" deb har ehtimolga qarshi belbog'iga tugib olgan edi. O'shanda alamdan bo'zarib turgan Haydarga qarab turib Asadbek rosa kuldi. Laqab ham o'shanda tug'ildi (1-kitob, 72-b).

Asarda Asadbek boshchiligida uyushgan jinoiy to'da nutqida boshqalar uchun biroz tushunarsiz bo'lgan kriminalistik leksikon ya'ni jinoiy leksikaga oid so'zlarni tahlil qilamiz.

— Hofiz, Zelixon Xangriyev kimligini bilmasam yurgan ekanman-da «o'qilonman», deeb kerilib. Haddingdan oshma, bola. Har ishning o'z hadisi bo'ladi. Akademik — o'g'ri. O'g'rilikda unga teng keladigani yo'q (1-kitob, 225-b).

Yuqoridagi tahlillarimizda Akademik so'zini laqab sirasiga kiritmadik sababi bu so'z jinoyat olami vakillari uchun tajribali jinoyatchiga nisbatan qo'llaniladi va kriminalistik vikilug'atlarda ham *Akademik*- tajribali jinoyatchi, avtoritet, degan ta'riflar keltiriladi.

— O'zimning ishim bor. Agar hohlasang... men bilan ishlashing mumkin. Yaqinda katta ov bo'ladi (1-kitob, 328-b).

Asar qahramoni Fedya tomonidan aytilgan” ov boladi” so‘zi katta bir jinoyat sodir etilishiga ishora qiladi. Shuningdek, qahramonlar tilidan o‘ch olinishi kerak bolgan kimsaga nisbatan *o‘lja* so‘zi qo‘llaniladi.

— Bekor aytibsan, itvachcha! — dedi Elchin xirillab. U o‘ljasidan bu gaplarni kutmagan edi .

O‘lishi lozim bo‘lgan o‘ljasi, Noilasining nomini bulg‘ab qo‘ydi (1-kitob, 204-b).

— Bek aka, hammasi pishdi. Uyiga oborib qo‘ydim,—dedi Jamshid.

— Bilmadim... eshitishimcha, «Volga»sini shumon qilib ketishibdi (1-kitob, 141-b).

Jamshid tilidan aytilgan *hammasi pishdi* so‘zi ya’ni hammasi hal bo‘di degan ma’noda kelsa, *shumon qilmoq* o‘g‘irlab ketilmoq ma’nolarini bildirib kelgan. Shuningdek, o‘ldirmoq so‘zini jinoyat olami vakillari turli hil tarzda *gumdon qilmoq, yo‘qotmoq, tinchitmoq* kabi shakllarini qo‘llaydi.

— Bratishka, hozir paxaningning og‘aynisinikiga borasan. Oti nimaydi, Hasanmi? Ha, Opoqingga aytasan: «Hasan amakimni bozorda mentlar tutib oldi, narsalarni gum qilar ekansiz», deysan (2-kitob,17-b).

Bezori to‘dalar, jinoyatchilar va o‘smir yoshlar nutqida uchraydigan *paxani* so‘zi shu guruhlarining eng kuchli ,hammani o‘ziga bo‘ysundira oladigan to‘daboshi yoki o‘g‘riboshiga nisbatan ishlatiladi ammo yozuvchi asarda bu so‘zni ota so‘zi o‘rnida qo‘llaydi. Asarda politsiyachilarni *mentlar, xitlar* deb atashadi va biror jinoiy ish ular tomonidan aniqlanganini sezishsa, *xitlashibdi* degan so‘zni qo‘llashadi. Quyida bunga misol keltiramiz;

— Ular tayyor, prokuror ozgina kavlashtirsin, birdan ro‘para qilsak, xitlashadi. Kecha sho‘pirni iziga tushishdi . Sho‘pir bugun Uchariqdan kelsa, tappa bosishadi. U og‘zidan gullaydi. Hammasini pishitib qo‘yganman. (2-kitob,110-b)

Uyushgan to‘da vakili Kesakpolvon tomonidan aytilgan *xitlashadi, tappa bosishadi, og‘zidan gullaydi, pishitib qo‘yganman* kabi so‘zlar to‘daning o‘zlari uchun tushunarli bo‘lgan nutqiga xosdir.

— Sharif qurug‘idan tortayotgan emish.(2-kitob,110-b)

Asardan olingan bu parchadagi *qurug'idan tortmoq* nasha chekmoq ma'nosida qo'llangan, shuningdek bu so'z ignaga o'rganib qolmoq, doriga o'rganmoq kabi shakllarda ham ishlatiladi.

Buyuk yozuvchi Tohir Malikning detektiv janrga mansub "Shaytanat" romanida jinoyatchilar olamining sir-asrorlari haqida so'z bo'ldi. Shunday ekan, ular o'zgarlar uchun tushunarsiz, o'zlari uchun tushunarli bo'lgan jargonlardan foydalanadi. Asarda jinoyat olamidagi voqealar fonida asosiy e'tibor asar qahramonlarining ruhiy dunyosini tahlil etishga qaratilgan. Romanda biz e'tibor qaratgan asosiy jihat, jinoyatchilar qo'llaydigan jargonlar bo'ldi. Rus tilshunoslari Boduen de Kurtene, V.M. Popov va ba'zi chet el tilshunoslarining izlanishlari natijasida yaratilgan o'g'rilar, firibgarlar va qamoqxona tilining kichik lug'atlaridan foydalanildi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Usmanova., N. Bekmuxamedova., G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. - Toshkent: 2014 16-17-betlar.
2. Узбек тилининг изоҳли луғати. - Москва: Русский язык. 1981
3. T. Malik. Shaytanat. 5-jildlik, 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. T. Malik. Shaytanat. 5-jildlik, 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
5. М. Грачев, А. Гуров, В. Рябинин. Словар уголовного жаргона. 1991